



CHORVACHILIK MAHSULOTLARI BOZORI, NARX O'ZGARISHLARI SABABLARI VA ISTIQBOLLARI

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta
o'qituvchisi (PhD) Axmedova Nafisa Amirddin qizi*

<https://orcid.org/0009-0009-0669-2347>

n.akhmedova@tsue.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada iqtisodiy tebranishlar va makroiqtisodiy beqarorlikning go'sht va go'sht mahsulotlari bozorida narx shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda yem-xashak narxlarining o'zgarishi, inflyatsiya darajasi, logistika xarajatlari hamda mavsumiy va taklif omillarining oxirgi iste'mol narxlariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Modellashtirish va statistik tahlil usullari orqali go'sht narxining iqtisodiy shoklarga ta'sirchanligi baholangan. Tadqiqot natijalari go'sht bozorida narx barqarorligini ta'minlash, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va importga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, innovatsion boshqaruv, samaradorlik, tarkibiy o'zgarishlar, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, texnologiya, modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish, chorvachilik, dehqonchilik.

Kirish

Hozirgi sharoitda go'sht va go'sht mahsulotlarini yetishtirish va yetkazib berish qishloq xo'jaligining asosiy omili hisoblanadi. Mazkur omildan imkon qadar ko'proq foydalanish mamlakatimizda agrosanoat majmuining barqaror rivojlanishini ta'minlashning yagona yo'lidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jadallashib, jahon iqtisodiyotining globallasuvi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatimiz qisqa muddatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning innovatsion



yo'liga jadal o'tishni amalga oshirishi, iqtisodiyotning ushbu strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmog'ini zamon talablariga javob beradigan sifat jihatdan yangi texniktexnologik asosda tiklashi lozim. Aks holda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda go'sht va go'sht mahsulotlarini yetishtirishni va yetkazib berish tarmog'i rivojlanishdan ortda qoladi va o'zining raqobatbardoshligini ta'minlay olmaydi, go'sht va go'sht mahsulotlarini bozor rastalarida narxi oshadi va yetishmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Birinchidan, dunyoda go'sht ishlab chiqarish hajmi sekinlashmoqda.

Ikkinchidan, yirik import qiluvchi davlatlarda talab yuqori. Shuningdek, ozuqa xomashyosi va transport xarajatlarining oshishi ham narxlarga ta'sir qilmoqda.

Masalan, Rossiyada tovuq go'shti narxi yil boshidan buyon 9,7 foizga oshgan bo'lsa, Qozog'istonda 4,7 foizga ko'tarildi. Umuman olganda O'zbekistonda go'sht narxi mintaqaviy tendensiyalar doirasida saqlanib turibdi. Global bozor tebranishlariga nisbatan barqarorligini ko'rsatmoqda. Olib borayotgan tadqiqotimizga ko'ra, ayni paytda yurtimizdagi bozorlarining arzonlashtirilgan rastalarida 1 kg mol va qo'y go'shti o'rtacha 75-85 ming, tadbirkorlar rastasida 100-110 ming, savdo markazlari (supermarketlar) da 120-140 ming so'mdan sotilmoqda. Toshkent shahridagi arzonlashtirilgan rastalardagi 75-85 ming so'mlik go'shtning bir kundagi sotilishi jami xaridorlarning 15-18 foizini, tadbirkorlar rastasidagi 100-110 ming so'mlik ro'zg'orbop go'sht xarid qiluvchilarning 82-85 foizini, 120-140 ming so'mlik suyaksiz (lahm) go'sht 1-2 foizni tashkil etadi.

Shuningdek, poytaxt bozorlarida go'shtni aholining xarid qobiliyatiga mos ravishda qismlarga bo'lib sotish ham yo'lga qo'yilgan.

Ya'ni, go'shti ajratilgan suyak (ragu) 25-30 ming so'm, qovurg'a 85-95 ming so'm, suyaksiz go'sht (lahm) 120-140 ming so'mdan sotilmoqda.

Taqqoslaydigan bo'lsak, Rossiyada 1 kg mol go'shti 10-12 dollar, Belarusda 6-8 dollar, Qozog'istonda 7-11 dollar, Tojikistonda 8-10 dollar, Gruziyada 9,5-12 dollar, Ajarbayjonda 9,5-12,5 dollar, Turkiyada 12-14 dollar,



shuningdek iqtisodiyoti rivojlangan Shvesiyada 46,2 dollar, Islandiyada 38,86 dollar, Janubiy Koreya 28 dollar atrofida sotilmoqda.

O'tgan yillar mobaynida "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida" gi 05.05.2022 yildagi qonunga muvofiq 2023 yil 1 yanvarga qadar mol va qo'y go'shtini realizatsiya qilishda aylanma, olib kirishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan edi.

Uchinchidan, statistik hisobotlarga ko'ra, 2025 yilning mart oyida go'sht ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlar, jumladan, yem-ozuqa, elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari narxlari keskin oshdi.

Masalan, 2024 yilning dekabr oyidagi qiymatga solishtirganda bugungi kunda shrot narxi 3 ming so'mdan 7 ming so'mga, sheluxa 2 ming 800 so'mdan 4 ming so'mga, omuxta yem 2 ming 900 so'mdan 3 ming 700 so'mga, bug'doy 2 ming so'mdan 3 ming so'mga, makka silosi 500 so'mdan 900-1000 so'mga, somon 15 ming so'mdan 25 ming so'mga, beda 25 ming so'mdan 45 ming so'mga ko'tarildi.

E'tiborlisi, go'sht yetishtirishda O'zbekiston ba'zi davlatlardan mol bosh soni ko'pligi, lekin ekin maydonlari kamligi bilan keskin farqlanadi.

Xorijiy mamlakatlarda mavjud chorva mollari bosh soni, umumiy ekin maydonlari, ozuqa uchun ajratilgan ekin maydonlari to'g'risidagi ma'lumot

№	Davlat	Chorva bosh soni (mln bosh)			Ekin maydonlari (mln ga)		
		oramol	o'y- chki	o'chqa	umiy ekin maydonlari	zuqa uchun atilgan ekin maydonlari	aylov
1	siya	17,4	0,8	27,6	121,649	16,124	92,052
2	og'iston	6,6	8,6	0,48	29,669	3,300	84,464
3	kiya	16,5	2,3		20,194	2,690	4,617



№	Davlat	Chorva bosh soni (mln bosh)			Ekin maydonlari (mln ga)		
		qoramol	qo'y- chki	qo'chqa	mumiy ekin maydonlari	yuza uchun atilgan ekin maydonlari	aylov
4	Qozg'iston	14,1	4,1		4,033	0,430	21,089

To'rtinchidan, tahlillarga ko'ra go'sht import qilinadigan mamlakatlarda xususan, Belarusiyada go'sht ishlab chiqarish 1 kilogramining tannarxi 6-10 ming so'mgacha ko'tarildi.

Qozg'iston va Qirg'iz respublikasidan so'yish uchun keltirilayotgan mollarning narxi tirik vaznda kilogramiga 5-10 ming so'mgacha qimmatlashdi va keltirish harajatlari bir bosh qoramolga nisbatan 100-150 dollarga qimmatlashdi.

Beshinchidan, bo'rdoqini so'yish uchun viloyatlardan Toshkent shahriga keltirish yoki go'shtni tashishdagi transport harajatlari, ya'ni ichki logistika (yoqilg'i moylash) harajatlari 150 foizgacha ko'tarildi.

Oltinchidan, go'sht oldi-sotdisida betartib chayqovchilik faoliyati mavjud.

Masalan, Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalari (zamonaviy qushxonalar) da so'yilgan chorva go'shti iste'mol bozori peshtaxtalarida kilogramiga 20-25 ming so'm, ayrim bozorlarda 25-30 ming so'mgacha ustama qo'yib sotilayotganligi go'sht tannarxining oshishiga olib kelmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, go'sht narxi oshishi quyidagi ikki holatga bog'liq: birinchisi, go'sht ishlab chiqarishda taqchillik (defitsit holat) yuzaga kelsa: ikkinchidan go'shtning tannarxi oshsa ta'sir etadi.

Bugun chorvachilik va uning tarmoqlaridagi strategik rejalashtirish asosidagi islohotlar tufayli iste'mol bozorida go'sht taqchilligi (defitsit holat)



kuzatilayotgani yo'q. Go'sht ishlab chiqarish va yetkazib berish talabni to'liq ta'minlayapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'ZBEKISTON — 2030» Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni,
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risidagi PQ-5009-son Qarori.
4. Addison J., Teixeira P. The Economics of Employment Protection. IZA Discussion Paper October No 381, 2001, -P. 19.
5. Samuelson P. Ekonomika. V.2 t. – M.: MGP «ALGON», VNIISI, 1992. 432 s.
6. Bryu S., Makkonell K. Ekonomiks: prinsipy, problemy i politika. V 2 t., per. s angl. 11-go izd. T. 1. – M.: «Respublika», 1992. -s. 132-175, 194-217; T. 2. - s. 156-174, 293-310.
7. Balabanov V.S., Borisenko E.N. Oziq-ovqat xavfsizligi: xalqaro va ichki jihatlar. – M.: Iqtisodiyot, 2012. – B. 22.
8. Frolov K.V., Gordeev A.V., Maslennikova O.A. va boshqalar. Oziq-ovqat xavfsizligi. 2-bo'lim / - M.: Bilim, 2011-101. b.
9. Abulkosimov H.P Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.- T.; Akademiya, 2012. 351 b.
10. Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlar va yo'nalishlari. Monografiya. – T.: “ Fan va texnologiya”, 2017, -152 b.;



11.Isajonov A.A. Konkurentosposobnost nasionalnoy ekonomiki: mirovoy opyt i sovremennye tendensii razvitiya // Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana, 1999. №6; s.5.;

12.Topildiev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. - Iqt. fan. dok. ... dis. - T.: «Tipograff» MChJ. 2023, -70 b.

13.Dusmatov B.O. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrasanoat ishlab chiqarishda innovasion infratuzilmani rivojlantirish. avt. ... i.f.d. T.:2022,-53 b.

14.Xo'jageldiev Ch.P. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi erlari unumdorligini oshirishni rag'batlantirish. avt. ... i.f.d. T.: 2022,-56 b.

15.Aliev Ya.E. "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari" Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali ii son. mart-aprel, 2020 198-b